

Ingliz va O'zbek Tillarida Modallik Kategoriyasining Leksik Tahlili.

Haydarov Anvar Askarovich

Professor of the English Linguistics department, Bukhara State University, Uzbekistan

a.a.haydarov@buxdu.uz

Tel.: +998930820957

Sattorova Shahlo Shavkatovna

Master of the English Linguistics department, Bukhara State University, Uzbekistan

shahlosattorova1610@gmail.com

Tel.: +998914422822

Resume: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida modallik kategoriyasini hosil qilish usullari haqida fikr yuritilib, ularning ikki tilde qiyosiy tahlili keltirilgan.

Key words: Modal fe'l, mustaqil so'zlar, bog'lovchi, ko'makchi, kiritma.

Abstract. This article discusses ways of creating modality categories in English and Uzbek languages, and presents a comparative analysis of them in the two languages.

Key words. Modal verb, independent words, conjunction, auxiliary, introduction.

Ingliz va o'zbek tillarida modal ma'nio ifodalash uchun xizmat qiladigan alohida so'zlar guruhi borki, ular modal so'zlar nomi bilan yuritiladi. Modal so'zlar mustaqil so'zlar singari predmet, belgi, miqdor yoki harakatni atamaydi, gap bo'lagi vazifasida ham kelmaydi. Ular umuman gapga tegishli bo'lib, qo'shimcha fikriy munosabat ifodalaydi xolos. Masalan: Ilm kishini ulug'laydi gapida albatta, shubhasiz so'zlari qo'shib aytilaganda mazkur gapning logik va grammatik mundarijasi o'zgarmaydi, ammo so'zlovchining qat'iy ishonch munosabati ifodalanayotgani gapda yaqqol ko'rindi. Odatda, ayrim modal so'zlarning boshqa so'z turkumlaridan hosil qilinganligi sezilib turmasada, ular bir butun leksik birlik sifatida qaraladi. Ular sostavidagi yasovchi va boshqa morfologik elementlar ajratilmaydi.

Chog'ishtirish: Shubhasiz, so'zsiz, chamasi, birinchidan kabi;

Modal so'zlar shaklan mustaqil so'zlarga o'xshaydi. Ammo ular gap tarkibida kelishi va uning bilan mazmunan bog'lanishiga ko'ra farqlanib turadi. Bu hol ingliz tilida va uning materiallarida ham uchraydi.

Chog'ishtirish: Qodir bu odamning aftidan kasb-korini aniqlay olmaydi. (A. Q.)

Ingliz tilidagi quyidagi misolda esa, modal so'z o'zbek tilida "chindan" so'zi bilan tarjima qilinadi.

**2023: International Conference on Multidimensional Research and
Innovative Technological Analyses (SPAIN)**
<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

She has evidently taken a great fancy to her. I was indeed impressed. (E. H.). (U chindan ham menda chuqur taassurot qoldirdi).

Aftidan ular endigina zavoddan chiqqan bo'lsa kerak.

Assurely the collective farm will fulfil its plan. (Albatta, jamoa shubhasiz o'z yillik rejasini bajaradi.)

Ehtimol, bo'ron uchun ham meni aybdor qilarsiz? (Sh. R.)

Ingliz tilida: James was naturally a good man. (Jeyms tabiatan yaxshi inson edi).

Yusuf afsus bilan iljaydi.(Sh.R.)

Obviously he has not recognized me. (P. A.) (U meni tanimasligi aniq yoki afsus u meni tанимади).

Taajjub uning bu maktubi kishida sevinch uyg'otmadi.

Does she really live in the street?(Ch. D.) (U haqiqatan shu ko'chada yashaydimi?)

Bu taajjub hol odamlarda taajjub tug'dirdi. (M. I.)

Oz demak hikmatga bog'liq. (Maqol).

Yuqoridaqı inglez va o'zbek tilidagi misollarni tadqiq qilsak, ularda qayd qilingan gaplar qiyoslashda, fikrga munosabatni ifodalaydi. Modal so'zlarni ajratish qiyin emas.

Modal so'zlar boshqa mustaqil so'zlar singari so'z o'zgartiruvchi va forma yasovchi elementlarga ham ega emas, bog'lovchi va ko'makchilar singari so'zlarning grammatik ma'nosini ifodalaydi. Gapda asosan kirish, kiritma vazifasida keladi. Modal so'zlar o'zining morfologik, sintaktik va semantik belgilari bilan xarakterlanadi. Modal so'zlarning morfologik belgisi ularning o'zgarmasligida bo'lsa, sintaktik belgisi esa gapning biror bir bo'lagi yoki butun bir gapga taalluqli bo'lib, kirish so'z vazifasida kelishidir. Semantik belgisi aniq tasdiq yoki taxmin kabi modal ma'nolarni ifodalashidir. Xuddi shuningdek mustaqil so'zlarga nisbatan kamroq nominativlik yordamchi so'zlarga nisbatan esa ko'proq mustaqillikka ega bo'lishidir. Shunday qilib, aytilgan fikrning voqelikka munosabatini aniq tasdiq yoki taxmin yo'li bilan bildirib, morfologik jihatdan o'zgarmaydigan kirish so'z ma'nosida kela oladigan so'zlar modal so'zlardir. Modal so'zlarning ko'pchligi aslida mustaqil so'zlardan kelib chiqqan. Masalan: aftidan, haqiqatan so'zlari otdan, shaksiz, so'zsiz so'zlari sifatdan, birinchidan, ikkinchidan so'zlari sondan o'sib chiqqandir. Modal so'zlar o'z ma'nosiga ko'ra asosan ikki guruhg'a bo'linadi: 1) fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so'zlar; 2) fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar;

Fikrning aniqligini ifodalovchi modal so'zlar yordamida asosan quyidagi modal ma'nolar ifodalananadi;

Fikrning rostligi, realligi tasdiqlanadi. Ular quyidagilar: darhaqiqat, haqiqatan, filhaqiqat (arxaik), voqe'an, nafsan biriga (arxaik), muhaqqaq va hokazo; Masalan: Darhaqiqat bugungi sayr umrbod esda qoladigan bo'ldi. (J. A.)

2023: International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (SPAIN)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

Muxtorali domla nafsim biriga odamning joni edi. (A. Q.)

Ingliz tilida: Surely you didn't want to hurt his feelings.

Fikrning qat'iyligi tasdiqlanadi: Bu, shubhasiz, bizning yurtimiz. (A. X.)

Ingliz tilida: I will certainly call to see my friend. (Men albatta do'stimni ko'rgani boraman.)

Aytيلوتجان fikrning yuzaga kelishi tabiiy ekanini ifodalaydi: Tabiiy, ormato'z do'stларидан ajralib qolomas edi. (X. N.)

Ingliz tilida: Of course, all will come in time. (Albatta, hamma majlisga o'z vaqtida keladi).

Fikrning chinligi. realligini eslatadi: rostdan ham, aslida, darvoqe, va hokazo.

Darvoqe, bu gap raisni uyida ham aytilagn edi. (S. Nazar).

Shunday qilib, ingliz tili modal fe'llari va ularning ekvivalentlaridan, modal fe'llar va ularning ekvivalentlari va ularni o'zbek tilidagi mos modellarini, modal ma'nolarini chegaralangan holda ona tili bazasida yuzaga kelgan interferentsiyani bartaraf qilish maqsadida ularni qiyoslab, o'quvchilarning reproduktiv o'zlashtirishini ta'minlash uchun yangi material sifatida can(could,to be able to + verb, to be to+ verb, be allowed to +verb, must, have to+verb) ni o'rgatish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A.Haydarov Ingliz tilida modallik ma'nosining ifodalanishi. Ilmiy maqolalar to'plami. Buxoro.2005.-B.93.
2. M.M.Jo'rayeva "Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari". -T.:Fan. 2006.
3. Sattorova Shahlo Shavkat qizi. (2022). Modallik ma'nolarining lingvistik asoslari. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and LanguageTeachingProcesses, <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/127>.
4. Sattorova Shahlo Shavkat qizi. (2022). Importance of Modality in Learning Process. Spanish Journal of Innovation and Integrity. Volume: 07, 2022, <http://sjii.indexedresearch.org>.
5. Usmonova Zarina Habibovna. (2022). The Implementing Author's Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the "I Robot" By Isacc Asimov. Eurasian Research Bulletin, 7, 63–65. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1019>
6. Erkinovna , Y. F. . (2023). Grice's Conversational Maxims in Our Everyday Life. Miasto Przyszłości, 32, 151–154. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1118>
7. YULDASHEVA, F. (2023). ВЫРАЖЕНИЕ ВЕЖЛИВОСТИ В РЕЧЕВОЙ ЭТИКЕТЕ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 31(31). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9214